Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari	796
<i>Xamidova Nigora Ibrohimovna</i>	
Обучение говорению на русском языке абитуриентов с помощью настольных игр	800
<i>Абдулаходова Шохид</i>	
Особенности педагогической деятельности и их виды	803
<i>Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.</i>	
Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности	808
<i>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</i>	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз	811
<i>Юлдашева Дилноза Бекмуродовна</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari	815
<i>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</i>	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise	818
<i>Ikramova Aziza Aminovna</i>	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati	823
<i>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</i>	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi	827
<i>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</i>	
Ko'zi ojiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	830
<i>Qarshiboyev Asliddin</i>	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari	834
<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari	839
<i>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</i>	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора	844
<i>Азмиева Э. Э.</i>	
Maktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati	851
<i>Xoldarova F. M.</i>	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	854
<i>Gulyamova Nafisa Burikulovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli	858
<i>Rizayeva Xusniya Ubayevna</i>	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli	861
<i>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</i>	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida ...	865
<i>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</i>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida	868
<i>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari	871
<i>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</i>	
Oliy badiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>	
Kasb-hunar maktablarida fizika fanini steam integratsiyasi asosida o'qitishning nazariy-didaktik asoslari ..	878
<i>Mamatxunov Yorkin Abduraimjanovich, Soliyeva Mubinabonu Zokirjon qizi</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida olib boriladigan pedagogik faoliyat imkoniyatlari	885
<i>Abidova Nilufar Zakirovna</i>	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar.....	888
Ahmedova Lola Abdivasi qizi	
Aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirishning asosiy komponentlari va samarali omillari.....	893
Anvarova Dilfuza Akramjanovna	
O'quv topshiriqlari orqali 6-sinf o'quvchilarining pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari.....	896
Ashirboyeva Nafisa Aminboyevna	
Talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini takomillashtirish va uning amaliy ahamiyati.....	900
Ergasheva Maftunaxon Avazbekovna	
Talabalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida reflektiv tafakkurni rivojlantirish	904
Ergasheva Nigora Dilshodjon qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	907
Isabekova Dilafruz Shermirzayevna, Gazibekova Gulavza Ergashovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslari.....	913
Murodov Akmal Djayliboyevich	
Maktabgacha ta'lim yoshdagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning estetik muomala madaniyatini tarbiyalash.....	917
Po'latova Parida	
Fizika fanini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining samaradorligi.....	920
Saparova Gulmira Baxtiyorovna	
Rus tilini o'qitishda an'anaviy va audiovizual usullarning qiyosiy tahlili	923
Umarov Aziz Avazovich	
An Analysis of The Importance of Teaching English at the Primary Level.....	927
Vasila Almetova Sunnatullayevna	
Muammoli ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash.....	931
Adizova Nodira Baxtiyorovna	
"Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning ilmiy-pedagogik yondashuvlari	936
Akmaljon Xushvaqto'v	
Iqtidorli talabalar bilan ishlash pedagogik muammolari	939
Delov To'liqin Erkinovich	
Rinolaliya nutq nuqsonining anatomik jihatdan kelib chiqishi	945
Kabirova Zarnigor Raxmonjon qizi	
Methodology for Teaching Modal Verbs in English Lessons	949
Kholnazarova Vazira Bozor qizi	
The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency	953
Kosimov Sunnat Ravshan ugli	
Disability Terminology in Uzbek: Etymological Evolution and Future Trends	957
Kuchkarova Xurshida	
Bo'lajak muhandislarni grafik dasturlar yordamida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish (muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida)	964
Madaminov Javlonbek Zafarjonovich	
Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv darsliklarning pedagogik imkoniyatlari	968
Mirzaakbarov Dilshod Dovlatboyevich	
Sog'lom turmush tarzi – jismoniy madaniyati sohibi sifatida jismoniy mashqlar komplekslarini tuzish va bajarishda amal qilinadigan qoidalar	971
Musayev Zarifjon Tursunaliyevich	
Bo'lajak defektologlarning pedagogik mas'uliyatini oshirish	974
Nodira Mirboboyeva	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish modeli	977
Odamboyeva Mehribon Norimon qizi	
O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....	981
Qurbanova O'g'iloy Axrorovna	



Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari	985
<i>Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi</i>	
Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari	989
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i>	
Dizatriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi	992
<i>Shermatova Yukut Sabirovna</i>	
Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi	995
<i>Soliyeva Diyora Bobur qizi</i>	
O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari	998
<i>Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi</i>	
Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	1001
<i>Tojibayeva Nazokatxon</i>	
Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	1005
<i>Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida	1008
<i>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
<i>Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi</i>	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
<i>Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
<i>Xoshimova Y. I.</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni	1023
<i>Xudoyqulova Aziza Anvar qizi</i>	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi	1026
<i>Yuldashov Sherzod Sattorovich</i>	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
<i>Жамолова Зарнигор Баходир кизи</i>	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов	1033
<i>Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
<i>Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni	1041
<i>Haydarova Namuna</i>	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners	1044
<i>Mohigul Nizomiddinova</i>	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish	1049
<i>Soliyeva Maftuna Tirkash qizi</i>	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
<i>Xamrayeva Iroda Sayfullayevna</i>	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
<i>Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi</i>	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
<i>Xolikova Dilobarxon Maxsitovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
<i>Primkulova Iroda Berdimurodovna</i>	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
<i>Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna</i>	
Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish	1071
<i>Esmuratov Muzaffar Elamonovich</i>	



Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	



INFORMATIKA O'QITISHDA VEB TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI



Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna
Qo'qon shahar 1-son Politeknikumi, katta o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada informatika fanini o'qitishda veb-texnologiyalardan foydalanishning o'quv jarayoniga ta'siri, ularning pedagogik hamda psixologik afzalliklari va talabalarda raqamli kompetensiyani shakllantirishdagi o'rni keng yoritilgan. Shuningdek, maqolada veb-asosidagi platformalarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati ilmiy asosda ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: informatika ta'limi, veb-texnologiyalar, raqamli kompetensiya, interaktiv ta'lim, masofaviy o'qitish, elektron platformalar.

Abstract: This article widely discusses the impact of using web technologies in teaching Informatics on the educational process, highlighting their pedagogical and psychological advantages as well as their role in shaping students' digital competence. In addition, the article examines the significance of web-based platforms in the educational process from a scientific perspective.

Key words: informatics education, web technologies, digital competence, interactive learning, distance education, e-learning platforms.

Аннотация: В данной статье широко освещается влияние использования веб-технологий в преподавании информатики на учебный процесс, их педагогические и психологические преимущества, а также роль в формировании цифровой компетенции у учащихся. Кроме того, в статье рассматривается значимость веб-платформ в образовательном процессе с научной точки зрения.

Ключевые слова: преподавание информатики, веб-технологии, цифровая компетенция, интерактивное обучение, дистанционное образование, электронные платформы.

KIRISH

Hozirgi davrda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – o'quv jarayoniga zamonaviy axborot va veb-texnologiyalarni keng joriy etishdir. Raqamli asrda bilim olish jarayoni faqat an'anaviy dars bilan chegaralanib qolmasdan, internet tarmog'idagi cheksiz axborot manbalariga tayanmoqda. Ayniqsa, informatika fanini o'qitishda veb-texnologiyalarni qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash, izlanish, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Google Classroom, Moodle, Edmodo, Quizizz, Kahoot, Padlet, Code.org kabi veb-platformalar nafaqat o'quv materiallarini yetkazish vositasi, balki interaktiv o'qitish, baholash, teskari aloqa o'rnatish va masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish imkonini beruvchi muhim metodik resurs sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu platformalardan foydalanish informatika fanining nazariy va amaliy qismlarini uyg'unlashtirish, o'quvchilarda dasturlash, algoritmik fikrlash va raqamli madaniyatni shakllantirishda beqiyos o'rin tutadi.

Informatika o'qituvchisi zamonaviy veb-texnologiyalar yordamida dars jarayonini tashkil etish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshiradi, ularni darsga faol jalb etadi va o'zaro muloqot samaradorligini kuchaytiradi. Shuningdek, veb-texnologiyalar ta'lim sifatini monitoring qilish, o'quvchilar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi va onlayn o'qitish tizimlarining kengayishi, o'quvchilar va o'qituvchilarda raqamli kompetensiyani rivojlantirish zarurati, o'quv jarayonini interaktiv va amaliy yo'nalishga o'tkazish ehtiyoji hamda ta'limda sifatli elektron resurslarni yaratish va ulardan foydalanish talabining ortib borishi mavzuning dolzarbligini belgilovchi omillardir.



Maqolaning asosiy maqsadi – informatika fanini o'qitishda veb-texnologiyalarning o'rne va samaradorligini tahlil qilish, ularni dars jarayoniga metodik jihatdan to'g'ri integratsiya qilish yo'llarini aniqlash bo'lib, unda veb-texnologiyalarning o'quv jarayonidagi pedagogik va psixologik ta'sir mexanizmlari, interaktiv muhitda o'qitishning afzalliklari hamda o'qituvchining raqamli roli tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Informatika ta'limida veb-texnologiyalardan foydalanish masalasi bugungi kunda ko'plab ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning markazida turibdi. O'zbekiston va xorijiy olimlar ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, masofaviy o'qitish tizimlarini yaratish, interaktiv ta'lim vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning bilimini chuqurlashtirish yo'llarini keng o'rganganlar.

Masalan, Muslimov N.A., Ishmuhammedov R.J., Usmonboeva M. va boshqa olimlarning asarlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishning nazariy va amaliy asoslari keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, veb-texnologiyalar o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish, tahlil qilish, izlanish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Natijalarini chuqur tahlil qilish uchun quyidagi metodik yondashuvlar asos qilib olindi: tahlil va taqqoslash metodi – veb-platformalarning o'quv jarayoniga ta'siri, ularning afzallik va kamchiliklari o'rganildi. Masalan, Google Classroom – nazorat va teskari aloqa uchun qulay, Moodle – strukturaviy o'qitish uchun samarali, Kahoot esa motivatsiyani oshiruvchi vosita sifatida tahlil qilindi. So'rovnoma va tajriba-sinov metodlari asosida veb-texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'llashning pedagogik, metodik va psixologik samaradorligi aniqlanadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, veb-texnologiyalar informatika ta'limida o'quvchini faol subyektga aylantiradi, dars jarayonida o'zaro muloqotni kuchaytiradi hamda o'qituvchining metodik imkoniyatlarini kengaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi informatika fanini o'qitishda veb-texnologiyalarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ma'lumotlar asosan kuzatish, so'rovnoma va tajriba-sinov ishlari orqali olindi. Kuzatish jarayonida o'quvchilarning darsdagi faolligi va ishtiroki qayd etildi, so'rovnoma orqali ularning fikrlari, qiziqishlari va web platformalardan foydalanish samaradorligi o'rganildi. Tajriba-sinov ishlari tajriba guruhi va nazorat guruhidagi natijalarni taqqoslash asosida olib borildi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil va taqqoslash metodlari yordamida qayta ishlanib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan kuzatishlar, tajribalar va so'rovnoma asosida informatika fanini o'qitishda veb-texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi quyidagi natijalarda o'z tasdig'ini topadi.

Avvalo, dars jarayonida veb-texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi. Bu ko'rsatkich tajriba guruhi (vab-asosida o'qiganlar) bilan nazorat guruhi (an'anaviy o'qitilganlar) natijalarini taqqoslash orqali aniqlanadi. Kuzatishlar natijalari shuni ko'rsatdiki, dars jarayonida veb-texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi. Kahoot va Quizizz platformalaridan foydalanilgan mashg'ulotlarda o'quvchilar o'zaro raqobat asosida faoliyat olib boradilar, bu esa ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, faol ishtirok etishlarini ta'minladi. Mustaqil ishlash va izlanish ko'nikmalari shakllanadi. Google Classroom orqali dars materiallari, testlar va mustaqil topshiriqlar joylashtirilib, talabalarga erkin o'qish va javob yuborish imkoniyati yaratiladi. O'quvchilar o'z natijalarini onlayn ko'rib, tahlil qilishni o'rganadilar. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot kuchayadi. Veb-platformalarda berilgan izohlar, chatlar va onlayn teskari aloqa tizimi darsni interaktiv muhitga aylantiradi. Shu orqali o'qituvchi o'quvchi faoliyatini nazorat qila oladi, zarur tavsiyalarni real vaqt rejimida beradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, veb-texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, tahliliy yondashuv va algoritmik tafakkur kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan, ta'lim resurslari va kontent platformalari Coursera, Udemy, edX turli xil mavzularda onlayn kurslar taqdim etadi. Universitetlar va mutaxassislar tomonidan yaratilgan kurslar video ma'ruzalar, topshiriqlar, forumlar va testlardan iborat bo'ladi. O'quvchi yoki talabalar o'zlariga qulay vaqtda o'qishlari, yangi ko'nikmalarga ega bo'lishlari mumkin. Khan Academy bepul ta'lim resurslarini taqdim etadi. Qisqa videolar, interaktiv mashqlar va progressni kuzatish imkoniyatlari mavjud. Maktab o'quvchilari va talabalar uchun juda foydali. YouTube: ta'limga oid kanallar orqali informatikaga oid mavzularda ma'lumot olish mumkin. Masalan, TED-Ed kanali qiziqarli va ilmiy mavzularda animatsion videolar taqdim etadi.

Onlayn hamkorlik va kommunikatsiya platformalaridan Google Classroom – o'qituvchilar topshiriqlar berish, baholash, e'lonlar joylash va talabalar bilan muloqot qilish uchun foydalanishlari mumkin. Talabalar



topshiriqlarni topshirish, materiallarni yuklab olish va forumlarda ishtirok etishlari mumkin. Microsoft Teamsda video konferensiyalar, chatlar, fayllarni almashish va hamkorlikda ishlash uchun imkoniyatlar yaratiladi. O'qituvchilar onlayn darslar o'tishlari, guruh loyihalarini tashkil qilishlari mumkin. Zoom esa video konferensiya platformasi bo'lib, onlayn darslar, seminarlar va uchrashuvlar o'tkazish uchun keng qo'llaniladi. Interaktiv doska, ekran almashish va guruhlariga bo'linish kabi funksiyalari mavjud.

Test va baholash platformalaridan Quizizz, Kahoot! larda o'yin elementlari bilan testlar va viktorinalar yaratish imkoniyati mavjud. Talabalar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishlari, o'qituvchilar esa ularning progressini kuzatishlari mumkin. Google Forms esa oddiy so'rovnoma, testlar va anketalar yaratish uchun foydalanish mumkin. Natijalarni avtomatik ravishda yig'ish va tahlil qilish imkoniyati mavjud.

Bular esa veb-texnologiyalarning ta'limdagi o'rnini faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham mustahkamlaydi.

Demak, veb-texnologiyalar yordamida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini oshiradi. O'quv jarayonida axborotlarni vizual, interaktiv va raqamli shaklda taqdim etish talabalarida qiziqish uyg'otadi. Veb-vositalar orqali nazorat va baholash jarayonining avtomatlashtirilishi o'qituvchining vaqtini tejaydi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, veb-texnologiyalar informatika ta'limida o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Biroq ularni o'quv jarayoniga joriy etishda bir qator omillarni inobatga olish zarur. Chunki texnologik vositalarning o'zidan ko'ra, ularni qanday maqsadda, qaysi metod bilan va qanday didaktik sharoitda qo'llanayotgani muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, veb-texnologiyalar o'qituvchidan yuqori raqamli savodxonlik va pedagogik innovatsion yondashuvni talab etadi. Ko'plab o'qituvchilar veb-platformalarning texnik imkoniyatlarini bilsalar-da, ularni metodik jihatdan to'g'ri qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu sababli o'qituvchilar uchun ushbu yo'nalishlarda maxsus kurslarni tashkil etish zarur.

Veb-texnologiyalar orqali o'qitishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- dars jarayonining interaktiv va vizual shaklda tashkil etilishi;
- o'quvchilarda mustaqil ishlash va o'zini baholash ko'nikmalarining shakllanishi;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning kuchayishi;
- o'quvchilarning vaqt va joydan qat'i nazar ta'lim olish imkoniyatining yaratilishi;
- baholash jarayonining avtomatlashtirilishi.

Biroq, bu jarayonda ayrim muammolar ham kuzatiladi:

- internet tarmog'ining sifati va texnik vositalarning yetishmasligi;
- ayrim o'qituvchilarda veb-texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha metodik tayyorgarlikning pastligi;
- o'quvchilarning veb-muhitda chalg'ish holatlari, diqqatni jamlay olmaslik muammosi;
- ba'zan veb-platformalarning ingliz tilida bo'lishi o'quvchilar uchun to'siq bo'lishi mumkin.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirishga qaratilgan maxsus seminar-treninglar tashkil etish;
- o'quv jarayoniga oson, qulay interfeysli, o'zbek tilida ishlovchi veb-platformalarni joriy etish;
- veb-texnologiyalar asosida dars ishlanmalarining metodik to'plamlarini yaratish va ulardan amaliyotda foydalanish;
- o'quvchilarda onlayn muhitda o'zini boshqarish, vaqtni samarali taqsimlash, mas'uliyat bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Shuningdek, veb-texnologiyalarni samarali qo'llash uchun "Blended learning" (aralash o'qitish) modeli eng maqbul yondashuv ekanligi aniqlangan. Bu modelda an'anaviy dars bilan onlayn mashg'ulot uyg'unlashtiriladi. Natijada o'quvchilar ham auditoriyada, ham masofadan turib faol ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, veb-texnologiyalarni o'qitish jarayoniga qo'llash:

- o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi;
- o'qituvchining nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- ta'lim jarayonini individual va differensial yondashuv asosida tashkil etish imkonini beradi.



Umuman olganda, veb-texnologiyalar zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, informatika fanini o'qitishda ular nafaqat vosita, balki metodik tizimning markaziy elementi sifatida qaralmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Informatika fanini o'qitishda veb-texnologiyalardan foydalanishning o'quv jarayoniga ta'siri, ularning afzalliklari va metodik imkoniyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, veb-texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishda, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini yaxshilashda hamda ularni mustaqil izlanishga undashda muhim rol o'ynaydi.

Informatika fanini o'qitishda veb-texnologiyalarni qo'llash quyidagi afzalliklarni beradi:

- o'quvchilarni darsga faol jalb etadi, motivatsiyasini oshiradi;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv muloqotni kuchaytiradi;
- o'quv materiallarini tushunarli va vizual shaklda taqdim etish imkonini yaratadi;
- masofaviy ta'limni samarali tashkil etish uchun sharoit yaratadi;
- o'quvchilarni axborot izlash, tahlil qilish va mustaqil ishlashga o'rgatadi.

Biroq, veb-texnologiyalardan foydalanishda ayrim cheklolar ham mavjud bo'lib, ularga internet tezligining pastligi, texnik jihozlarning yetarli emasligi va ayrim o'qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi pastligi kiradi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar beriladi:

- ta'lim muassasalarini zamonaviy kompyuter texnikasi va barqaror internet bilan ta'minlash;
- o'qituvchilar uchun veb-texnologiyalarni o'qitishda samarali qo'llash bo'yicha amaliy treninglar o'tkazish;
- o'quv dasturlariga veb-asosidagi ta'lim vositalaridan foydalanish bo'yicha maxsus modullar kiritish;
- o'quvchilar uchun mustaqil o'qish, masofadan topshiriq bajarish va onlayn baholash tizimlarini takomillashtirish.

Demak, veb-texnologiyalar informatika ta'limining mazmunini boyitadi va o'qitish jarayonining sifat ko'rsatkichlarini oshiradi. Ular o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. O'qituvchilarning innovatsion salohiyatini kuchaytiradi va ularni yangi metodik yondashuvlarga yo'naltiradi. Ta'limda veb-vositalardan foydalanish orqali dars jarayonida ijodkorlik, muloqot va hamkorlik muhiti yaratiladi.

Shunday qilib, veb-texnologiyalar zamonaviy informatika ta'limining ajralmas qismi bo'lib, ularni dars jarayoniga samarali tatbiq etish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va raqamli madaniyatni shakllantirishning eng muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muslimov N.A., Ishmuhammedov R.J., Usmonboeva M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Raximova M. Veb-asosidagi o'qitish tizimlarining pedagogik imkoniyatlari. – Ta'lim va innovatsiya jurnali, №3, 2023.
3. Abduqodirova D. Informatika fanini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish. – Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari, 2022.
4. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers (ICT-CFT). – Paris: UNESCO Publishing, 2022.
5. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. – Teachers College Record, Vol. 108, 2006.
6. OECD. Digital Education Outlook 2023: Teaching in the Digital Age. – Paris: OECD Publishing, 2023.
7. Xudoyberdiyeva D. Axborot texnologiyalarining ta'limdagi o'rni. – Pedagogik ta'lim ilmiy jurnali, №2, 2021.
8. Code.org. Computer Science Education Statistics and Reports. – 2024. URL: <https://code.org>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.